

**TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING INGLIZ AMALIY
MASHG'ULOTLARIDA QO'LLANILADIGAN TIBBIY-TEXNIK ASBOBLAR VA
YANGI TIBBIY TEXNOLOGIYALAR TASNIFI**

Hamroyeva Sanobar Hasan qizi

Tarix va filologiya kafedrasи.

Osiyo Xalqaro Universiteti. Buxoro, Uzbekistan

Email: hamroyevasanobar1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14750674>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili amaliy mashg'ulotlarida qo'llaniladigan zamonaviy tibbiy-texnik asboblar va yangi tibbiy texnologiyalarini o'rghanishga bag'ishlangan.

Tadqiqotda ingliz tili o'qituvchilari va talabalari tomonidan foydalaniladigan turli tibbiy texnologiyalar, xususan, virtual va masofaviy o'qitish vositalari, tibbiy apparatlar va onlayn platformalar tahlil qilinadi. Yangi tibbiy texnologiyalar, ayniqsa, sun'iy intellekt, telemeditsina va tibbiy ma'lumotlar bazalari ingliz tilini o'rghanishda qanday samarali qo'llanishi mumkinligi ko'rsatiladi. Shuningdek, ingliz tilini o'qitishda tibbiy terminologiyani o'rghanish va tushunishni yaxshilash maqsadida foydalaniladigan usullar hamda metodikalar ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari tibbiy ta'limdi rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarini qo'llashning muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Tibbiy-Texnik asboblar, Yangi tibbiy texnologiyalar, Uskunalarining ingliz tilidagi nomlarining tasnifi, Virtual va masofaviy o'qitish vositalari, Tibbiy apparatlar, Telemeditsina, Virtual reallik (VR), simulyatsiya qurilmalari, tibbiy apparatlar (ultrasonografiya, rentgen, EKG tizimlari) va diagnostik uskunalar.

CLASSIFICATION OF MEDICAL AND TECHNICAL DEVICES AND NEW MEDICAL TECHNOLOGIES USED IN ENGLISH PRACTICAL TRAINING IN HIGHER MEDICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. This article is devoted to the study of modern medical and technical devices and new medical technologies used in English practical training. The study analyzes various medical technologies used by English teachers and students, in particular, virtual and distance learning tools, medical devices and online platforms. It shows how new medical technologies, in particular, artificial intelligence, telemedicine and medical databases, can be effectively used in English language learning. It also examines the methods and techniques used to improve the study and understanding of medical terminology in English language teaching. The results of the study emphasize the importance of innovative approaches and the use of modern technologies in the development of medical education.

Keywords: Medical-Technical Devices, New Medical Technologies, Classification of Equipment Names in English, Virtual and Distance Learning Tools, Medical Devices, Telemedicine, Virtual Reality (VR), Simulation Devices, Medical Devices (ultrasonography, X-ray, ECG Systems) and Diagnostic Equipment.

КЛАССИФИКАЦИЯ МЕДИЦИНСКИХ И ТЕХНИЧЕСКИХ УСТРОЙСТВ И НОВЫХ МЕДИЦИНСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В АНГЛОЯЗЫЧНОЙ ПРАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ В ВЫСШИХ МЕДИЦИНСКИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. Статья посвящена изучению современных медицинских и технических устройств и новых медицинских технологий, используемых на практических занятиях по английскому языку. В исследовании анализируются различные медицинские технологии, используемые преподавателями и студентами английского языка, включая виртуальные и дистанционные инструменты обучения, медицинские приборы и онлайн-платформы. Будет показано, как новые медицинские технологии, особенно искусственный интеллект, телемедицина и медицинские базы данных, могут быть эффективно использованы при изучении английского языка. В нем также рассматриваются методы и приемы, используемые для улучшения изучения и понимания медицинской терминологии при преподавании английского языка. Результаты исследования подчеркивают важность инновационных подходов и использования современных технологий в развитии медицинского образования.

Ключевые слова: Медицинско-технические приборы, Новые медицинские технологии, Классификация названий оборудования на английском языке, Средства виртуального и дистанционного обучения, Медицинские приборы, Телемедицина, Виртуальная реальность (VR), Устройства моделирования, Медицинские приборы (УЗИ, рентген, ЭКГ-системы) и Диагностические Оборудование.

Yigirma birinchi asrdagi jadal taraqqiyot davrida ta'lim va uning vazifasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hozirgi yoshlar jamiyat taraqqiyotining asosiy manbaidir. Ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsadi har tomonlama barkamol inson shakllantirishdir. Yoshlarga chet tilini o'rgatish insonning o'sishi, ya'ni zamonaviy dunyoning ko'p madaniyatli va ko'p tilli muhitiga moslashuvchanlik nuqtai nazaridan, u yangi tilni o'rganish uchun qulay sharoitlarni yaratadi. Til to'sig'i nafaqat ilmiy muassasalar va maktablarda, balki boshqa bir qancha maktabgacha ta'lim muassasalarida ham institutsional ta'limning zarur elementiga aylanib bormoqda. Til o'qitishda zamonaviy texnologiyalar, onlayn resurslar va o'quv dasturlari qo'llaniladi.

Bu o'quvchilarga mustaqil o'rganishga va o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Tilni o'qitish jarayonida integratsiya, amaliyot, va madaniy kontekstga asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

Bu tizim o'quvchilarga nafaqat tilni o'rganishda, balki boshqa madaniyatlar bilan ham tanishish imkonini beradi. Integratsiyalashgan yondashuv ya'ni bu o'quvchilarga tilni muloqot kontekstida o'rganishga yordam beradi. O'quvchilarga tilni ma'lum bir mavzu doirasida o'rganish tavsiya etiladi, bu esa ularga ko'proq motivatsiya beradi va tilda real hayotdagi vaziyatlarni tushunishga yordam beradi. Hozirgi kunda ta'limga etibor berish, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy ma'nnaviy jihatdan rivojlantirish demakdir. Tibbiyot fani va sog'liqni saqlash amaliyotining yildan yilga rivojlanib borishi zamonaviy tadqiqot uslublar va yangi pedagogik texnologiyalar, diagnostik uslublar hamda zamonaviy kompyuterlami tibbiyotoing barcha bo'limlariga kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Bulaming hammasi bolg'usi shifokorlardan ulaming fizika, matematika, ingliz tili va texnikaviy fanlar xususan "Tibbiyot elektronikasi" bo'yicha nazariy va amaliy bilim darajalarini yanada oshirib borishlarini talab qiladi. Shularni hisobga olgan holda, ushbu tezisda "Tibbiy texnika va yangi tibbiyot texnologiyasi" - fani namunaviy dasturiga mos tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, tibbiyot priborlari va apparaturalari bilan ishlashda ularning vazifasi, ingliz tilidagi nomi, texnik xarakteristikasi, tuzilishi va ishlash prinsipi, qurilmani ishga tayyorlash va ishlatish hamda barcha qurilmalarda qanday texnikaviy xavfsizlik choralariga amal qilish alohida - alohida ko'rsatib o'tadi. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish amaliyotlari tibbiy bilimlarni rivojlantirish va ilmiy kommunikatsiyani mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Bugungi kunda ingliz tili global tibbiyot sohasida muhim rol o'ynashini inobatga olib, ingliz tilini o'rganish jarayonida zamonaviy tibbiy-texnik asboblar va yangi texnologiyalardan foydalanish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda va tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili amaliy mashg'ulotlarida qo'llaniladigan tibbiy-texnik asboblar va yangi tibbiy texnologiyalarni tasniflash va ularning samarali qo'llanishini o'rganishdir. Yangi tibbiy texnologiyalar va ularning ingliz tilida qo'llanilishi quyidagicha amalga oshiriladi ya'ni tibbiy texnologiyalar haqidagi ma'lumotlar, maqolalar va videolar ko'pincha ingliz tilida mavjud. Tibbiyot mutaxassislari o'rtaida ingliz tilida muloqot va tajriba almashish amalga oshiriladi.

Bu jarayonlar yangi texnologiyalarni keng tarqatish va ulardan foydalanishni osonlashtiradi. Texnologiyalarni taqdim etuvchi kompaniyalar Ingliz tilida batafsil ma'lumotlar, qo'llanmalar va videolar tayyorlaydi, bu esa foydalanuvchilarga oson tushunishga yordam beradi.

Ingliz tilida mavjud bo'lgan onlayn kurslar va o'quv materiallari orqali tibbiyot mutaxassislari yangi texnologiyalar haqida bilimlarini oshirishi mumkin. Tibbiyot sohasida ingliz tilida muloqot qiluvchi xalqaro jamoalar yangi texnologiyalarni birgalikda ishlab chiqish va qo'llash imkoniyatini beradi.

Klinik tadqiqotlar va tajribalar ingliz tilida olib borilishi orqali, mutaxassislar o‘zaro tajribalarini bo‘lishish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Tibbiyot va texnologiyalar sohasidagi ilmiy maqolalar va tadqiqotlar ingliz tilida chop etiladi, bu esa mutaxassislarga yangi bilimlar olish imkoniyati beradi. Tibbiyotda sun'iy intellektning o‘rni (masalan, diagnostika, rasmlı tahlil, robototexnika) va uning ingliz tilida ilmiy tushuntirishlari. Sun'iy intellekt tibbiy diagnostikada innovatsion vositalar sifatida ishlatiladi. U ma'lumotlarni analiz qilib, kasalliklarni aniqlashda yuqori aniqlik bilan yordam beradi. Masalan, SI yordamida xuddi radiografiya tasvirlaridan olingan xulosalarni tez va aniq, inson mutaxassislariga nisbatan samarali baholash imkonini beradi. Sun'iy intellekt texnologiyalari, masalan, kompyuter tomografiyasi (KT) va magnitrezonans tomografiyasi (MRT) tahlillarini osonlik bilan bajara oladi. Ular turli kasalliklarni aniqlash va baholashda keng qamrovli ma'lumotlarni analiz qilib, radiologlar uchun qulaylik yaratadi.

Robototexnika: SI-ga asoslangan robotlar jarrohlik amaliyotlarini bajarish, masalan, robotsiz jarrohlik qilishda ishlatiladi. Bu usul jarrohlarning aniqligini oshiradi va bemorlarga kamroq zarba etkazadi, shuningdek, tiklanish jarayonini tezlashtiradi. un'iy intellekt o‘zining yuqori aniqligi bilan tibbiy muammolarni tezda aniqlay oladi, bu esa davolash jarayonini tezlashtiradi va samaradorligini oshiradi. anlangan algoritmlar tufayli, tajriba o'tkazish jarayonida ko‘p vaqt ni tejaydi, bu orqali bemorlarga tezda tibbiy yordam ko‘rsatish imkonini beradi. Sun'iy intellekt ma'lumotlarni to‘plash va tahlil qilish orqali har bir bemorning individual ehtiyojlariga mos ravishda davolanish usulini taklif etadi. Osonlik bilan tahlil qilib, tibbiy muassasalarga resurslarni samarali utilizatsiya qilish imkonini beradi, bu esa iqtisodiy jihatdan ham foyda keltiradi. Shuningdek, sun'iy intellekt tibbiyotda yangi ufqlarni olib, foydalanuvchilarga yanada sifatlari va samarali xizmat ko‘rsatishni ta'minlaydi.

Quyida tibbiyotdagagi asosiy uskunalar va ularning ingliz tilidagi nomlari, tasnifi va ularning vazifalarini batafsil bayon qiladi.

1. Diagnostik uskunalar¹(Diagnostic equipment):

- ➡ **Stethoscope (stetoskop):** Yurak urishini, nafas olishni va boshqa ichki tovushlarni eshitish uchun ishlatiladi.
- ➡ **Thermometer (termometr):** Bemorning haroratini o'lchash uchun ishlatiladi.
- ➡ **Sphygmomanometer (sfigmomanometr):** Qon bosimini o'lchash uchun ishlatiladi.
- ➡ **Ophthalmoscope (oftalmoskop):** Ko'zning ichki qismlarini tekshirish uchun ishlatiladi (retina, ko'z nervi).
- ➡ **Otoscope (otoskop):** Quloq kanalini tekshirish uchun ishlatiladi.

1. British Council. (2023). Teaching Technical English: Strategies and Resources.

 **Electrocardiogram (ECG or EKG) machine² (elektrokardiogramma apparati):**

Yurak ritmini va elektr faoliyatini tekshiradi.

 **X-ray machine (rentgen apparati):** Ichki organlarni, suyaklarni va to'qimalarni tasvirlash uchun ishlatiladi.

 **Ultrasound machine (ultrasonografiya apparati):** Yangi olingan tasvirlar yordamida organlarni va to'qimalarni tekshiradi.

 **MRI machine (Magnetic Resonance Imaging apparati):** Ichki organlarni, bosh miya va bo'g'implarni aniqlash uchun ishlatiladi.

 **CT scanner (Komp'yuter tomografiya apparati):** Yirik organlarning kesma tasvirlarini olish uchun ishlatiladi.

2. Jarrohlik uskunalari Surgical instruments):

 **Scalpel (skalpelya):** To'qimalarni kesish uchun ishlatiladi, odatda jarrohlik amaliyotlarida.

 **Forceps (forsalar):** To'qimalarni ushslash, siljitim yoki tortib olish uchun ishlatiladi.

 **Needle holder (ignali ushlovchi):** Igna va iplarni ushlab turish uchun ishlatiladi.

 **Surgical scissors (jarrohlik qaychi):** To'qimalarni kesish yoki kesish uchun ishlatiladi.

 **Hemostat (gemostat):** Tomirlarni yopish va qon ketishini to'xtatish uchun ishlatiladi.

 **Suture (nipel yoki tiki):** To'qimalarni birlashtirish uchun ishlatiladi (tikish uchun ip).

 **Surgical drape (jarrohlik pardasi):** Amaliyot sohasini yopish va sterilizatsiya qilish uchun ishlatiladi.

3. Reabilitatsiya va fizioterapiya uskunalari³ (Rehabilitation and physiotherapy equipment):

 **TENS unit (Transcutaneous Electrical Nerve Stimulation aparati):** Og'riqni kamaytirish va mushaklarni stimulyatsiya qilish uchun ishlatiladi.

 **Exercise machine (mashq qilish uskunasi):** Muskul va bo'g'implarni tiklash uchun ishlatiladi, masalan, pedal mashqlari, velosiped mashinasi.

 **Hot/cold packs (issiq/sovuv kompresslar):** Og'riqni kamaytirish va yallig'lanishni davolash uchun.

 **Ultrasound therapy machine (ultrason terapiya apparati):** Yallig'lanishni davolash, og'riqni kamaytirish uchun.

 **Traction device (traksion uskunasi):** Suyak yoki bo'g'imni tortish va tiklash uchun ishlatiladi.

-
2. British Council. (2023). Teaching Technical English: Strategies and Resources.
 3. British Council. (2023). Teaching Technical English: Strategies and Resources.
 4. Longman Dictionary of Contemporary English. (2021). Longman Pearson Education.
 5. Macmillan English for Engineers Dictionary. (2018). Macmillan Education.

4. O'zgaruvchan vositalar⁴ (Consumables):

- ✚ **Syringe (syringa):** Suyuqliklarni (dori, in'ektsiyalar) kiritish yoki olish uchun ishlatiladi.
- ✚ **Needle (igna):** Dori yoki suyuqliklarni teriga kiritish uchun ishlatiladi.
- ✚ **Catheter (kateter):** Siyidik chiqarish yoki boshqa suyuqliklarni olib tashlash uchun ishlatiladi.
- ✚ **Bandage (bint):** Yaralarni yopish va himoya qilish uchun ishlatiladi.
- ✚ **Gauze (gazli mato):** Yaralarni tozalash va yopish uchun ishlatiladi.
- ✚ **Adhesive tape (plaster):** Yarani yopish yoki bandajni mahkamlash uchun ishlatiladi.

5. Laboratoriya asboblari⁵ (Laboratory instruments):

- ✚ **Microscope (mikroskop):** Namunaning kichik tuzilishini ko'rish uchun ishlatiladi.
- ✚ **Centrifuge (tsentrifuga):** Suv va qattiq moddalarni ajratish uchun ishlatiladi.
- ✚ **Autoclave (avtoklav):** Sterilizatsiya qilish uchun yuqori harorat va bosimdan foydalanadi.
- ✚ **Refrigerator (muzlatgich):** Dori-darmonlarni yoki laboratoriya materiallarini saqlash uchun.

6. Bemor parvarishi va monitoring uskunalari⁶ (Patient care and monitoring equipment):

- ✚ **Infusion pump (infuziya nasos):** Tomir ichiga dori yoki suyuqliklarni aniq miqdorda yuborish uchun ishlatiladi.
- ✚ **Pulse oximeter (pulsoximetr):** Qonning kislород darajasini o'lchash uchun ishlatiladi.
- ✚ **Patient monitor (bemorni monitoring qilish apparati):** Yurak ritmi, qon bosimi, nafas olish tezligi va boshqa hayotiy ko'rsatkichlarni kuzatish uchun ishlatiladi.
- ✚ **Ventilator (ventilyator):** Bemorning nafas olish jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi.
- ✚ **Defibrillator (defibrillyator):** Yurakning turg'unligini tiklash va yurak urishini normallashtirish uchun ishlatiladi.

7. Farmatsevtika uskunalari⁷ (Pharmaceutical equipment):

- ✚ **Pill counter (tabletka sanagich):** Dori-darmonlarni aniq miqdorda sanash uchun ishlatiladi.
- ✚ **Blister pack (blister paket):** Dori-darmonlarni to'plamga joylash va ularni himoya qilish uchun ishlatiladi.

6. Macmillan English for Engineers Dictionary. (2018). Macmillan Education.

7. <https://chatgpt.com>

⊕ **Tablet press (tabletani bosish mashinasi):** Dori tabletkalarini tayyorlash uchun ishlatiladi.

8. Tibbiy tasvirlash uskunaları⁸(Medical imaging equipment):

- **CT Scanner (CT skaner):** Kompyuter tomografiyasini amalga oshirish uchun ishlatiladi, ko'plab tasvirlar olinadi va tahlil qilinadi.

- **MRI Scanner (MRI skaner):** Magnit resonans tasvirlash uchun ishlatiladi, bo'g'imlar, miya va boshqa yumshoq to'qimalarni aniq ko'rsatadi.

- **X-ray machine (rentgen apparati):** Suyaklarning, to'qimalarning tasvirini olish uchun ishlatiladi. Tibbiyotdagi uskunalar keng va turli xil bo'lib, ularning har biri muayyan maqsadga xizmat qiladi.

“Tibbiyot texnikasi” kursi nihoyasida barcha talabalar quyidagi zaruriy, nazariy va amaliy ko‘nikma hamda malakalarga ega bo‘lishlari va quyidagilarni bilishi kerak:

- tashxis qo‘yishda, davolash va ilmiy tadqiqot maqsadlarida foydalilaniladigan tibbiy asboblar, pribor va apparatlaming vazifasi, tuzilishi va ishlash prinsiplarini;

- tibbiyot asboblari, pribor va apparatlarda energiya tashuvchi hisoblanuvchi fizikaviy omillaming a'zo va to‘qimalfirga ta’sir mexanizmlarini;

- tibbiyot muassasalarda, maxsus klinika va markazlarda davolash texnologiyalari tizimini tuzilishini umuuniy prinsiplari.

Yuqorida ko‘rsatilgan ko‘nikma va malakalarga ega bo’lgandan so‘ng, mustaqil ravishda quyidagilarni bajara olishi lozim:

- maxsus tibbiy diagnostika va davolash uchun zarur bo‘lgan tibbiy asbob va uskunalarga hamda pnbor va apparatlarni maqsadga muvofiq tanlay bilish;

- tibbiy asbob va uskunalar hamda pribor va apparatlaming texnik xususiyatlarini, ularning luzilishi va ishlash prinsiplarim ilmiy tushungan holda texnik xavfsizlik qoidalariiga rioya qilishi;

- diagnostikada, davolashda, jarrohlik va reanimatsiyada foydalilaniladigan asboblar va qurilmalardan foydalanishni, tibbiy ma'lumotlami qayd qilish va hujjatlashni.

Tibbiy texnika va yangi tibbiyot texnologiyasi fanini o‘rganish uchuntibbiyot elektronikasini ilmiy asoslangan holda mukammal o‘rganish maqsadgamuvofiqdir. Chunki hozirgi vaqtida elektronika tushunchasi keng tarqalgandir. Zamonaviy texnika fani bo’lmagan elektronika, eng avvalo hozirgi zamon fizikayutuqlariga asoslanadi, shuning uchun elektron apparatlarsiz hozirgi kundakasalliklar diagnostikasini ham, ulami effektiv davolashni ham amalga oshirib bo‘lmaydi. Davolash maqsadida organizmga turli fizik faktorlar (ultratovush, elektr toki, elektromagnit maydon va boshqalar) bilan dozali ta’sir ko’rsatishni ta’minlovchielektron qurilmalari: mikroto'lqinli terapiya apparatlari, elektroxirurgiya uchunapparatlar,

8. Oxford English Dictionary for Technical Terms. (2020). Oxford University Press.

kardiostimulyator va boshqalar bo‘lib hisoblanadi. Zamonaviy tibbiyot elektronikasining asosi kibernetika elektron qurilmalaribo‘lib ular:

- a) tibbiy-biologik axborotni qayta ishslash, saqlash va avtomatik analizqilish, muayyan masofaga uzatish uchun elektron hisoblash mashinalari;
- b) hayotuchun zarur bo‘lgan jarayonlarini boshqarish va odamni o‘rab olgan atrof-muhitning holati ustidan avtomatik tartib o‘matish uchun tuzilmalar;
- v) biologic jarayonlaniing elektron modellari va boshqalami tashkil qiladi. Tibbiyot elektronikasi asbob va apparatlarning ishlatalishi diagnostika hamdadavolashning samaradorligini va tabobat x-odimining mehnat unumdarligini oshiradi.

Telemeditsina (Inglizcha: **Telemedicine**) — bu tibbiyot amaliyotini masofaviy tarzda, odatda internet orqali amalga oshirishni ta'minlaydigan tizimdir. Telemeditsina texnologiyalari bemorlarga va tibbiyot xodimlariga geografik jihatdan uzoq bo'lsa ham tibbiy xizmatlardan foydalanish imkonini beradi. U asosan tibbiy konsultatsiyalar, tashxis qo'yish, davolash va tibbiy ma'lumotlar almashish uchun ishlataladi. Telemeditsina orqali bemorlar tibbiy yordamni masofaviy tarzda olishlari mumkin. Bu video qo'ng'iroqlar, chatlar yoki telefon orqali amalga oshiriladi. Tibbiy mutaxassislar va bemorlar orasidagi bu masofaviy aloqa jarayoni, uzoq hududlarda yashovchi yoki harakat qilishda qiyinchiliklarga duch kelgan bemorlar uchun juda qulaydir. Telemeditsina yordamida bemorlarning tibbiy holati masofadan tekshirilishi mumkin.

Bemorlar o'zlarining tibbiy ko'rsatkichlarini (masalan, qon bosimi, yurak urishi, nafas olish tezligi) masofaviy usulda o'lchab, bu ma'lumotlarni shifokorga yuborishlari mumkin. Bemorlar o'zlarining holatini masofadan monitoring qilish uchun turli xil qurilmalardan foydalanishlari mumkin. Masalan, diabet bemorlari o'zlarining qon shakarini o'lchash va natijalarni tibbiy mutaxassislarga yuborishlari mumkin. Shifokorlar bu ma'lumotlarni ko'rib chiqib, zarur bo'lsa, davolashni moslashtiradilar. Telemeditsina orqali psixologik maslahatlar va terapiya seanslari o'tkazilishi mumkin. Bemorlar videokonferensiya, telefon yoki onlayn chat orqali psixologlardan yordam olishlari mumkin.

Telemeditsina, ayniqsa, tibbiy xizmatlar taqdimotini yaxshilash, bemorlarning qulayligini ta'minlash va tibbiy resurslarni samarali foydalanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq, u barqaror rivojlanish va maxfiylikka oid masalalarni hal qilishni talab qiladi.

REFERENCES

1. Brown, H. D. (2001). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. New York: Pearson Education.
2. British Council. (2023). *Teaching Technical English: Strategies and Resources*. Retrieved from <https://www.britishcouncil.org>

3. Kasimova Sh. B. "Ingliz tilini o'qitishning zamonaviy usullari"
4. Longman Dictionary of Contemporary English. (2021). Longman Pearson Education.
5. M.X.To'xtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. *Pedagogika darslik*.T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
6. Macmillan English for Engineers Dictionary. (2018). Macmillan Education.
7. Tibbiy texnika va yangi tibbiyot texnologiyasi: O'quv qollanm a / S.U m arov, E .B ozorov, O .Jabborova; —T.: "Iqtisod-M oliya", 2018. - 216 b.